

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

"KIRITDI"

**Toshkent to'qimachilik va yengil
sanoat instituti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha prorektor**



N.B. Mirzayev

06 2025-y

"TASDIQLAYMAN"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



18 2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI
"Chizmatasvir", "Kompozitsiya" fanlari**

**60210400 – "Dizayn: milliy kostyum dizayni" ta'lif
yo'nalishi uchun**

Dastur Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2025 yil 23 may, 10-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

X.H.Kamilova

TTYSI o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, “Moda va dizayn” kafedrasi professori, t.f.d.

U.A.Vaxidova

TTYSI “Moda va dizayn” kafedrasi mudiri, dotsent

R.T.Axmedov

TTYSI “Moda va dizayn” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Z.P.Xaitova

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizain instituti (MRDI) “Libos dizayni” kafedrasi mudiri

R.T.Norchayev

K.Bexzod nomidagi MRDI" Amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrasi mudiri, dotsent

KIRISH

Mamlakatimizda ibratli an'ana va qadriyatlarimizni asrab avaylash, milliy madaniyatimiz va san'atimizni tobora rivojlantirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning badiiy did va tafakkurini to'g'ri shakillantirishga xizmat qiladi. Tarixan qisqa vaqt ichida madaniy merosni qayta tiklash, milliy qadriyatlarni va kiyinish madaniyatini rivojlantirish borasida qator yutuqlar qo'lga kiritildi.

Kiyinish nafaqat tabiiy zaruriyat, maishiy ehtiyoj, balki u inson ruhiyati, xarakteri, ahloqi, dunyoqarashi, ichki go'zalligi, didi, madaniyatidan darak beruvchi omil ham hisoblanadi. O'zbek milliy liboslari millat ramzlaridan biri sanalib, asrlar qa'rida shakllangan, mukammal shakl kasb etgan qadriyatlari namunalarini targ'ib etish orqali elat, hududiy-mintaqaviy va umuminsoniy belgilarni uyg'unlashuvini namoyon etadi.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun "**Chizmatasvir**" va "**Kompozitsiya**" fanlari sifatida zaruriyati juda katta.

60210400 – "Dizayn: milliy kostyum dizayni" ta'lim yo'nalishi bo'yicha (kasbiy) ijodiy imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar maktablardagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. 60210400 – "Dizayn: milliy kostyum dizayni" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar (kasbiy) ijodiy imtihonda chizmatasvir va kompozitsiya fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Jami ball	Jumladan:	
	"Chizmatasvir" fanidan	"Kompozitsiya" fanidan
156	93	63

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslар eskitilarini ishslash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Chizmatasvir – barcha tasviriylar san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi.

“Chizmatasvir” fani “Dizayn” ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun asosiy vazifasini o‘tab, ularda badiiy didlarini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakl va hajmni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
- shaxsiy mualliflikdagi grafika ishi.

Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:

- qog‘oz yuzasiga qo‘yilmani konstruktiv to‘g‘ri joylashtirish;
- tasvirlanayotgan qo‘yilmani nisbatlarini to‘g‘ri aniqlash va hajm chiqarish yechimlarini ifodalay olish.

Kompozitsiya – barcha san’at turlarini asosiy tushunchasi bo‘lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o‘ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni, badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko‘nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsiyal va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g‘oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsiyal ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o‘zaro uyg‘unligi.

1. 60210400 – “Dizayn: milliy kostyum dizayni” ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi

1.1. “Chizmatasvir” fani bo‘yicha.

Imtihonda abituriyentlar gipsli modelni (klassik haykal boshini) naturadan chizmachilik asboblari va ko‘rgazmali materiallardan foydalanmagan holda, grafit qalamda bajaradilar. “Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan namuna 1-ilovada keltirilgan.

Chizmatasvir **50x70** formatdagagi planshetga tortilgan qog‘ozda (vatman) **6 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so‘ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash me’zoni asosidagi **93** balli shkala bo‘yicha baholanadi.

1. Chizmatasvir bo‘yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o‘tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan **50x70** formatdagagi planshetga tortilgan qog‘oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to‘ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiyligi vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilet tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo‘lishi kerak:

- turli och-to‘qlikdagi grafit qalamlar;
- yumshoq o‘chirg‘ichlar;
- **50x70** hajmdagi qog‘oz (vatman) tortilgan planshet;
- qalam ochish uchun ochqich yoki scalpel.

7. Zarur bo‘lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog‘oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog‘oz yo‘q qilinadi. Yangi berilgan qog‘oz ham shtampli bo‘lishi lozim. Abituriyent qog‘ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo‘sib bermasligi to‘g‘risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo‘yish va suratga olish qat’ian taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so‘ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me’zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo‘yilgan ballar so‘z bilan ham yoziladi va baholar qog‘ozning ish bajarilgan tomonida bo‘lishi lozim.

10. Baholar imtihon qaydnomalariga ko‘chiriladi. “Chizmatasvir” fani bo‘yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy “web-saytida” e’lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o‘tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalari so‘zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo‘yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnomaga tuzilib chetlashtiriladi.

“Chizmatasvir” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Nº	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1	Tasvirni qog‘oz planshetga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish	20,0	
2	Naturaning konstruktiv tuzilishlari va proporsiyalari to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	20,0	
3	Soya-yorug‘ qonuniyatlarini to‘liq ifodalash va tus munosabatlarini aniqlash	20,0	
4	Materiallik (gips, mato va b.) to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	15,0	
5	Tasvirni yaxlit holatga keltirib ishni grafik jihatdan umumlashtirish va yakunlash	18,0	
Jami		93	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko‘rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 93 ballga ega bo‘ladi.

Ijodiy imtihonlar bo‘yicha ijodiy sinovlar o‘tkazuvchi komissiya a’zolari mutaxassislik kafedralari professor-o‘qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

1.2. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha

Imtihindan abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo‘yicha milliy liboslar to‘plami kompozitsiyasi bajariladi. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan namuna 2-ilovada keltirilgan.

Kompozitsiya 50x70 yoki 40x60 formatdagi planshetga tortilgan qog‘ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so‘ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezoni asosida maksimal **63**-balli shkala bo‘yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo‘yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o‘tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 yoki 40x60 formatdagi planshetga tortilgan qog‘oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihindan qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to‘ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilet tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo‘lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog‘oz (vatman) tortilgan planshet;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o‘tkirlangan qalamlar;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);

- yumshoq o‘chirg‘ichlar;

- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;

- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo‘yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o‘zining turli texnik qobiliyatlariga bog‘liq boshqa instrumentlarga ham ega bo‘lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo‘yoq asosidagi bo‘yoqlar va uzoq vaqtini (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo‘yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o‘chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

7. Zarur bo‘lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog‘oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog‘oz yo‘q qilinadi. Yangi berilgan qog‘oz ham shtampli bo‘lishi lozim. Abituriyent qog‘ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo‘sib bermasligi to‘g‘risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo‘yish va suratga olish qat’ian taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so‘ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me’zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo‘ylgan ballar so‘z bilan ham yoziladi va baholar qog‘ozning ish bajarilgan tomonida bo‘lishi lozim.

10. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko‘chiriladi. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy “web-saytida” e’lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o‘tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalari so‘zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo‘yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnomha tuzilib chetlashtiriladi.

**“Kompozitsiya” fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g‘oyaviy mazmundorligi;
- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to‘g‘ri ishlatilganligi;
- chizilgan eskizlarning bir-biriga uyg‘unligi, elementlarning to‘g‘ri topilganligi;
- berilgan topshiriqning mazmuni, ma’nosi to‘liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

**60210400 – “Dizayn: miliy kostyum dizayni” ta’lim yo‘nalishi kompozitsiya
bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihoni uchun mavzular ro‘yxati**

1. O‘zbek an’anaviy matolaridan liboslar to‘plami.
2. O‘zbek kashtachiligidan foydalanib ayollar liboslari to‘plami.
3. Buxoro zardo‘zligidan foydalanib ayollar liboslari to‘plami.
4. Surxondaryo-Qashqadaryo naqshlaridan foydalanib ayollar liboslari to‘plami.
5. Xorazm vohasning an’anaviy kostyumi elementlari va taqinchoqlarini qo‘llab zamonaviy liboslar to‘plami.
6. Qoraqalpog kashtachiligidan foydalanib etno uslubidagi liboslar to‘plami.
7. O‘zbekiston zargarlik taqinchoqlarini qo‘llab yoshlar komplektlari to‘plami.
8. Toshkent-Farg‘ona an’anaviy kostyumi bichimlari va matolaridan foydalangan holda kiyimi to‘plami.

**60210400 – “Dizayn: milliy kostyum dizayni” ta’lim yo‘nalishining kasbiy
(ijodiy) imtihonda “Kompozitsiya” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan
bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

Nº	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1.	Kostyum kompozitsiyasini qog‘ozga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish.	13,0	
2.	Kompozitsyaning mavzuga mos tuzilganligi, g‘oyaviy yechimi va kreativligi.	15,0	
3.	Kostyum elementlari va materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to‘g‘ri topilganligi	15,0	
4.	Kostyum kompozitsyaning bajarilishi texnikasi va to‘liq tugallanganligi	20,0	
	Jami	63	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori **63** ballga ega bo'ladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

2. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristides, Juliette. Beginning Drawing Atelier: An Instructional Sketchbook. Paris: Atelier du Dessin Classique, 2023.
2. Holmes, Catherine V. How to Draw Cool Stuff: A Drawing Guide for Teachers and Students. – 2nd ed. – USA: Library Tales Publishing, 2020.
3. X.X. Kamilova, N.A.Isahojayeva, K.R.Fuzailova. Kostyum kreativ grafikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
4. N.A.Isahojayeva, A.F.Karimov, R.T.Axmedov. Chizmatasvir va rangtasvir. – TTYSI bosmaxonasi, 2018.
5. B.Boymetov. Qalamtasvir. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013.
6. Ермолаева Л.П. Основы дизайнерского искусства: декоративная живопись, графика, рисунок фигуры человека. Москва, 2001.
7. X.X.Kamilova, U.A.Voxidova. Loyihalash. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
8. Hywel Davies. Fashion Designers’ Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010.
9. Bina Abling. Fashion Sketchbook. Firechild Book, New York, 2012 y
10. S.Abdurasilov, N.Tolipov. N.Oripova. Rangtasvir. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2006.
11. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. – T.: Ilm Ziyo, 2005.
12. B.B. Boymetov. Chizmatasvir . – Toshkent: Ilm Ziyo, 2005. -190 b.
13. S.Bulatov. Rangshunoslik. – Toshkent: O’zbekiston, 2009.-160 b.
14. N.Sodiqova. O’zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar- T.: G‘.G‘ulom, 2006.
15. Зарида Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. Москва, 2008.
16. Л.А.Сафина, Л.М.Тухтабулина, В.В.Хаматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
17. Гусейнов Г.М. Композиция костюма. Москва, 2003
18. Н.С. Макавеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум.-М.: Академия, 2008.
19. Ф.М.Пармон. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. -М. “Триада плюс”, 2002.
20. Ш. Зеленг. Век модельеров. 1900- 1999 – Штутгарт: 2001.



Axborot manbalari:

- 21.<http://modanews.ru/books>
- 22.<https://www.elle.ru › moda › fashion-blog › 5-sekretov-feshn-illy us tratsi>
23. www.pinterest.ru › pin
24. www.wmj.ru/moda

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan
NAMUNA**

Vazifa: Antik davr xaykali bosh qismining akademik chizmatasviri



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu bo‘yicha milliy liboslar to‘plami kompozitsiyasi

